



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 2**

**2026**

## **O‘ZBEKISTON JAMOAT TRANSPORTI TARIXIGA BIR NAZAR**

**Kupaysinov Ismoyiljon Axmadjonovich**  
University of Business and Science, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston SSRda jamoat transporti tizimining shakllanishi hamda uning rivojlanish bosqichlari tahliliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda jahon miqyosida jamoat transportining paydo bo‘lish jarayonidan boshlab, Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi va O‘zbekiston SSR hududida ushbu tizimning rivojlanish bosqichlari yillar kesimida yoritilgan. Shuningdek, sovet davrida transport sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko‘rsatgan ta‘siri tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** transport, shahar transporti, omnibus, metro, avtomobil, tramvay, avtomobil parki, elektr transporti.

## **ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Купайсинов Исмойилжон Ахмаджонович**  
University of Business and Science, преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье анализируется формирование системы общественного транспорта в Узбекской ССР и этапы ее развития. Исследование охватывает этапы развития этой системы в СССР и Узбекской ССР на протяжении многих лет, начиная с появления общественного транспорта в глобальном масштабе. Также анализируются меры, принятые в транспортном секторе в советский период, и их влияние на социально-экономическую жизнь страны.

**Ключевые слова:** транспорт, городской транспорт, омнибус, метро, автомобиль, трамвай, автопарк, электротранспорт.

## **A LOOK AT THE HISTORY OF PUBLIC TRANSPORTATION IN UZBEKISTAN**

**Kupaysinov Ismoyiljon Akhmadjonovich**  
University of Business and Science, Teacher

### **Abstract**

This article analyzes the formation of the public transportation system in the Uzbek SSR and the stages of its development. The study covers the stages of this system's development in the USSR and the Uzbek SSR over many years, beginning with the emergence of public transportation on a global scale. It also analyzes the measures taken in the transportation sector during the Soviet period and their impact on the country's socioeconomic life

**Keywords:** transportation, urban transportation, omnibus, metro, automobile, tram, vehicle fleet, electric transport.

Transport — ijtimoiy moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i bo‘lib, yuklar va yo‘lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat viloyatlari va shaharlari, korxonalar, xalq xo‘jaligi tarmoqlari o‘rtasida, shuningdek, mamlakat ichida o‘zaro ayirboshlash va aloqani ta‘minlaydi.

Shahar transporti — aholi va yuklarni shahar hududida hamda shahar atrofida tashiydigan, shuningdek, shahar obodonchiligi bilan bog‘liq ishlarni bajaradigan transport turlari majmuasi hisoblanadi. U shahar tizimidagi turar joy massivlari va sanoat hududlaridan

uzoqroqda joylashgan yoʻldosh shaharlar va ommaviy dam olish zonalarida ham xizmat qiladi. Shahar transporti shahar xoʻjaligining muhim tarmogʻi hisoblanadi. Shahar hududlarining kengayishi, aholining chekka hududlarga koʻchishi, turar joylarning ish joylaridan uzoqlashuvi, shaharda yuk aylanmasining ortishi shahar transportiga boʻlgan talabni kuchaytirgan. Shahar transporti vazifasiga koʻra yoʻlovchi, yuk tashuvchi va maxsus transportlarga boʻlinadi. Yoʻlovchi transporti quyidagi turlarni oʻz ichiga oladi: jamoat transporti — yoʻlovchilarni muayyan belgilangan marshrutlarda tashiydigan koʻcha transporti (tramvay, trolleybus, avtobus) hamda koʻchadan yurmaydigan transport (metropoliten, tezkor tramvay, monorelsli yoʻllar, konveyer transporti); yengil avtomobil transporti (taksi, maʼmuriy hamda shaxsiy avtomobillar); ikki gʻildirakli transport (mototsikl, motoroller, moped va velosipedlar); suv transporti (daryo “tramvayi”, motorli va eshkakli qayiqlar, sollar); havo transporti (vertolyot, samolyot) [1; 4-b.].

Jahon tarixida jamoat transporti dastlab 1662-yilda Parijda bir nechta ot bilan harakatlanadigan aravalarni ishga tushirishdan boshlangan [2; 5-p.]. Ular faqat aholining yuqori tabaqa vakillari va ularning oilalariga xizmat qilganligi sababli, aholining koʻp qismi bu xizmatdan foydalana olmagan. Dastlabki taksi xizmati 1605-yilda Londonda, keyinchalik esa 1637-yilda Parijda ot-aravalar orqali yoʻlovchilarni pullik tashishdan boshlangan [3; 18-p.]. 1826-yilda jamoat transportida omnibus paydo boʻlgan [4; 169-b.]. 1830-yillarda omnibus yoʻnalishlari boʻylab koʻchalarga temir izlar yotqizish boshlangan va birinchi temir yoʻlga asoslangan tranzit tizimlari yaratilgan [5; 45-p.]. 1873-yilda Hallidie jamoat transportida hayvonlarga boʻlgan ehtiyojni yoʻqotadigan, yangi kabel orqali boshqariladigan tizimni ixtiro qilgan. Ushbu yangilik hayvonlarsiz transport harakati uchun zamin yaratgan. 1881-yilda elektr va temir yoʻl transportida tramvay paydo boʻlgan. 1892-yilda Chikagoda birinchi shahar koʻchalari ustida joylashgan va hozirgi kungacha harakatlanadigan poyezd tizimi ishga tushirilishi bilan tezkor tranzit tizimi ishlab chiqilgan. 1897-yilda Boston AQSHning birinchi metro tizimiga ega boʻlgan [6; 56-p.]. Mana shu tarzda jahon jamoat transportining takomillashuvi roʻy berdi. Keyinchalik dunyoning boshqa mamlakatlariga ham bu tizim kirib bordi.

Xususan, SSSRda 1840-yilda 11 nafar odam sigʻadigan uzun arava koʻrinishidagi ochiq vagonlar harakati yoʻlga qoʻyilgan. Uni bir juft yoki toʻrtta ot tortgan. Ushbu vagonlar shahar yoʻlovchilarini maʼlum yoʻnalishlar boʻylab tashigan. 1866–1891-yillarda ot aravalari yoʻlovchi tashishning asosiy turi boʻlib, Moskvada ularning 26 mingga yaqini boʻlgan. Taksilar nafaqat yoʻlovchilarni, balki yuklarni ham tashish bilan shugʻullangan. 1863-yilda birinchi marta Sankt-Peterburgda Nevskiy prospekti boʻylab oʻtli tramvay qatnovi tashkil etilgan. Birinchi elektr tramvay 1892-yilda Kiyevda ishga tushirilgan boʻlib, bu Yevropada tramvay xizmatiga ega ikkinchi shahar boʻlgan. Moskvada birinchi tramvay liniyasi 1903-yilda, Sankt-Peterburgda esa 1907-yilda ishga tushirilgan. Sankt-Peterburg aholisiga avtobus qatnovi 1907-yilda boshlanib, 1910-yilga kelib 14 ta avtobus boʻlgan. Moskvada birinchi muntazam yoʻnalish 1908-yil 13-avgustda ochilgan. 1913-yilda avtobuslar soni 8 taga yetgan [7; 19-b.]. Shunday qilib, mazkur davrda SSSR jamoat transporti kengayib, aholi xizmat faoliyatiga yordam bera boshladi.

1917-yilgi Oktyabr inqilobidan soʻng mamlakat iqtisodini sotsialistik asosda rivojlantirish boshlandi. Kommunistik partiya va Sovet hukumati Sovet hokimiyatining dastlabki kunlaridanoq xalq xoʻjaligining eng muhim tarmoqlaridan biri boʻlgan avtomobil transportini rivojlantirishga eʼtibor qaratdi. Mahalliy transportning moddiy-texnika bazasini yaratish va uni boshqarishning tashkiliy tizimini takomillashtirish yuzasidan choralar koʻrildi. Mahalliy transportga rahbarlikni va transport vositalarini hisobga olishni markazlashtirish, transportdan foydalanishning asosiy prinsiplarini belgilash, transport vositalaridan ratsional

foydalanish maqsadida 1921-yil 7-iyulda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti raisi M.I. Kalinin va SSSR Xalq Komissarlari Soveti raisi V.I. Lenin imzosi bilan dekret e'lon qilindi. Ushbu dekretga muvofiq, Yo'llar xalq komissarligi huzurida Mahalliy transport markaziy boshqarmasi tashkil qilindi. Bu tashkilotga Ittifoq miqyosida avtomobil transporti mutaxassislarini tayyorlash vazifasi yuklatildi.

Sovet hukumati o'z avtomobil sanoatiga ega bo'lmaganligi sababli 1922-yilda Germaniya, Fransiya, Italiya, Angliya va AQSHdan avtomobillar sotib oldi. Shu yili 592 ta avtomobil sotib olingan bo'lib, ulardan 429 tasi yuk avtomobili, 163 tasi esa yengil avtomobil edi. Chet el avtomobillari Turkistonga ham keltirilgan. Chet ellardan asosan Renault, Ford, Fiat, Mercedes, Opel, Studebaker, Zenger, White va boshqa markali avtomobillar olib kelingan [8; 118-b.]. Ammo zarur ta'mirlash bazasi, ehtiyot qismlar va takomillashtirilgan avtomobil yo'llarining yo'qligi sababli avtomobillarning texnik holati qoniqarsiz bo'lgan.

O'zbekistonda jamoat transporti XX asr boshlarida paydo bo'lgan, unga qadar ot-ulov asosiy transport vositasi hisoblangan. 1901-yildan Toshkentda faqat konka bo'lib, uning yo'lining uzunligi 10 kmni tashkil qilgan [9; 864-b.]. 1896-yilda Toshkent shahar hokimligi tadbirkor Eduard Empenga tegishli Belgiyaning "Toshkent tramvayi" anonim jamiyati bilan Toshkentda tramvay qurish va undan foydalanish to'g'risida shartnoma tuzgan. 1912-yilda vagonlar soni 30 ta, otlar soni esa 230 taga yetgan. Depo Eski shaharda joylashgan. 1912-yildan boshlab elektr tramvay ishga tushirilgan. 1913-yili Toshkentda tramvay yo'lining uzunligi 38 km bo'lgan. Toshkentda birinchi avtobus 1909-yildan qatnay boshlagan. 1910-yilga kelib, chet elda ishlab chiqarilgan 8 ta kichik avtobus, 1921-yilga borib esa Toshkent avtomobil ta'mirlash ustaxonasi hamda 40 ta yengil va 15 ta yuk avtomobili harakatga kiritilgan [10; 113-b.]. 1926-yildan boshlab Toshkentda "Bents-Gaggenau" firmasining 40 kishiga mo'ljallangan 7 ta avtobusi yo'lovchi tashishni boshlagan.

1923-yilda SSSRda tuzilgan "Avtopromtorg" savdo-sanoat jamiyati chet eldan avtomobil sotib olishni ko'paytirishda muhim rol o'ynagan. Bu jamiyat chet eldan avtomobil sotib olish, mamlakat ichkarisida avtomobillar, ehtiyot qismlar va materiallar sotish, shuningdek, avtomobillarda yuk va yo'lovchilar tashishni uyushtirish bilan shug'ullangan. 1924-yilda jami 223 ta avtomobil bo'lib, ularda 145 ming tonna turli yuk tashilgan. O'zbekiston hukumati Ittifoq jamiyatining O'zbekiston bo'limini tashkil qilish to'g'risida "Avtopromtorg" boshqarmasi bilan 1926-yil 30-yanvarda ta'sis shartnomasi tuzgan, 1926-yil 15-iyunda esa O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti "Uzavtopromtorg"ning ustavini tasdiqlagan. "Uzavtopromtorg" aksiyali jamiyati respublikada avtomobil transportini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Jamiyatning Samarqandda 21 ta, Toshkentda 21 ta, Termizda 16 ta, Andijonda 8 ta, Buxoroda 7 ta avtomobilga ega garajlari va Toshkentda 1 ta avtomobil magazini bo'lgan. Avtomobil transporti jamiyati asosan yo'lovchilar tashish bilan shug'ullangan. 1926–1927-yillarda umumiy uzunligi 541,5 kilometr keladigan 12 ta shaharlararo va shahar ichki yo'nalishlarda yo'lovchilar tashilgan. Toshkent–Piskent, Toshkent–Qo'yliq, Andijon–O'sh, Kogon–Buxoro, Termiz–Dushanba, Termiz–Sherobod va boshqa yo'nalishlar avtobuslar doimiy qatnab turgan asosiy marshrutlar bo'lgan [11; 20-b.].

O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish vazifasi avtomobil transportini yanada rivojlantirishni taqozo etar edi, chunki respublikaning mavjud avtomobil parki xalq xo'jaligining yuk va yo'lovchilar tashish sohasidagi o'sgan talablarini qondira olmagan. Masalan, 1927-yilda O'zbekiston SSRda jami 465 ta avtomobil bo'lib, ulardan 183 tasi yengil, 152 tasi yuk avtomashinasi, 10 tasi maxsus mashina va 80 tasi avtobus edi.

SSSR xalq xo'jaligini rivojlantirishning birinchi besh yillik (1928–1932) rejasi qabul qilinib, SSSRda va xususan O'zbekiston SSRda ushbu rejani muvaffaqiyatli bajarish uchun avtomobil transporti rivojlantirildi. Chunki mavjud ot-arava va avtomobil transporti sanoat,

qurilish, qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq yuklarini tashib bera olmagan. Besh yillikning beshinchi yili oxirida O'zbekiston avtomobil parkida 1297 ta avtomashina, shu jumladan 204 ta yengil mashina, 990 ta yuk avtomashinasi va 103 ta boshqa xil avtomobillar bo'lgan. Yuk tashiydigan avtomobil transportida 1,7 million tonna yuk tashilgan [12; 20-b.].

SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1930-yil 23-fevralda mamlakatning turli xalq komissariatlari qaramog'ida bo'lgan asosiy transport va ekspeditsion tashkilotlarni birlashtirish hamda ular negizida Butunittifoq transport-ekspeditsion ishlar birlashmasi — "Soyuztrans"ni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan. "Soyuztrans"ning vujudga keltirilishi umum foydalanishdagi avtomobil transportini rivojlantirishga yordam bergan. O'zbekistonda "Soyuztrans"ning xalq xo'jaligi yuklari va yo'lovchilar tashishni boshqaradigan O'zbekiston oblast kontorasi tashkil qilingan. 1932-yil boshida O'zbekiston kontorasi respublika hududida joylashgan 11 ta avtomobil xo'jaligida yuk tashiydigan 179 ta va yo'lovchilar tashiydigan 133 ta avtomobilga ega bo'lgan. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Farg'ona, Buxoro, O'ratepa, Panjikent, Konibodom, Xo'jand va Qarshida kontoraning avtomobil xo'jaliklari mavjud bo'lgan [13; 21-b.]. Shunday qilib, birinchi besh yillik mamlakatda ishlab chiqarilgan avtomobillar hisobiga avtomobil transportini rivojlantirishda, umum foydalanishdagi avtomobil transportini vujudga keltirishda va uning moddiy-texnika bazasini yaxshilashda muhim bosqich bo'ldi. 1926-yildan avtobus, 1947-yildan trolleybuslar jamoat transportida muhim rol o'ynay boshladi. 1949-yilda Toshkent, 1957-yilda Samarqand, 1970-yilda Olmaliq, 1970-yilda Andijon, 1971-yilda Farg'ona, 1973-yilda Namangan shaharlarida trolleybus, Toshkent shahrida esa tramvay, qolgan barcha shaharlarda avtobuslar yo'lovchilarga xizmat qilgan. 1977-yilda Toshkent metropolitenining birinchi liniyasi ishga tushirilgan [14; 13-b.]. Ushbu ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki, mazkur davrda O'zbekiston SSRda jamoat transportining barcha turlari rivojlana boshlagan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jamoat transporti tizimi XVII asrda shakllanib, keyingi davrlarda bosqichma-bosqich takomillashgan holda jahon miqyosida keng yoyildi. Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqida ushbu sohaning rivojlantirilishi natijasida O'zbekiston hududida ham jamoat transporti tizimi o'ziga xos sharoitlar asosida tarkib topdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida transport sohasida yuz bergan texnik yangilanishlar natijasida an'anaviy ot-ulovlar o'rnini avtobus, tramvay, taksi va trolleybus kabi zamonaviy transport vositalari egalladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Alautdinova N., Agzamova G. O'zbekistonning transport tizimi, uning sohalari va vositalari: bibliografik ko'rsatkich. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2021. — B. 4.
2. Ubaydullayev I. X. va boshq. O'zbekiston transporti. — Toshkent: O'zbekiston KP MK nashriyoti, 1969. — B. 18.
3. Moore H. C. Omnibuses and cabs: ularning kelib chiqishi va tarixi. — London: Chapman & Hall, 1902. — B. 183.
4. Parks M. Jamoat transportida avtobuslar tarixi URL: <https://gogocharters.com/blog/history-of-public-bustransportation/>
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild.—Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. B. 864.
6. O'zbekiston Sovet ensiklopediyasi. — Toshkent: O'zbekiston sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1979. — B. 13.
7. Matveeva V. R. Bashqirdiston ASSR shaharlarida ommaviy jamoat transportining rivojlanishi (1925–1991 yy.): tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Ufa, 2015. B. 19.